

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTI VA TURIZM: INTEGRATSIYA VA RIVOJLANISH YO‘LLARI

To‘rayev Jo‘rabek Abdullayevich

Surxondaryo viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Annotatsiya:

Viloyatning tabiiy resurslari, tarixiy-madaniy obidalari, ekologik imkoniyatlari va noyob etnik merosi turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ortishi, turizm infratuzilmasining kengayishi va xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi mahalliy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sifati, marketing faoliyati va mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Turizmning yanada rivojlanishi Surxondaryoni nafaqat milliy, balki mintaqaviy turizm markaziga aylantirishi kutilmoqda. Ushbu maqolada shu haqida so‘z borib, yechimlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: turizm, infratuzilma, meros, ekoturizm, investitsiya, sayyohlik, bandlike.

Kirish

Davlat tomonidan ham turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator imtiyoz va dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xorijiy turistlarni jalb qilish uchun elektron vizalar tizimi joriy etildi, turizm kompaniyalari uchun soliq imtiyozlari belgilandi. Surxondaryo viloyatida 2022-2024-yillar davomida 25 ta yirik turizm loyihasi amalga oshirildi, ularning umumiy qiymati 250 mlrd so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Ushbu loyihalar natijasida yangi mehmonxonalar, zamonaviy dam olish maskanlari, sayyohlik xizmatlari markazlari foydalanishga topshirildi.


Shu bilan birga, viloyat turizmida bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifati, gid va tarjimonlar sonining yetarli emasligi, marketing faoliyatining sustligi muammolar sirasiga kiradi. Xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar yetishmasligi, reklama va axborot-ta‘lim resurslarining kamligi Surxondaryoning turizm salohiyatini to‘liq namoyon qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, qator tarixiy yodgorliklarning restavratsiya va saqlash ishlari talab darajasida emas. Masalan, Kampirtepa va Fayoztepa hududlarida konservatsiya ishlari tezkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.

Shu sababli viloyatda turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda: avvalo, turizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish va servis xizmatlarini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, marketing va PR tadbirlarini kuchaytirish. Shu bilan birga, ekoturizm, ziyorat turizmi, ekstremal turizm kabi

yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha ham aniq rejalari ishlab chiqilmoqda. 2025-yilga kelib Surxondaryo viloyatida turistlar oqimini 500 ming nafarga yetkazish, turizm sohasidan tushadigan daromadlarni 25 mln dollardan oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Tahlil va natija. Jahon miqyosida turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, 2019-yilda global YaIMning 10,4 foizini tashkil etgan. 2022-yilda pandemiyadan so‘ng sayyohlar soni 960 millionga yetib, xalqaro turizm global yalpi ichki mahsulotning 9,1 foizini qayta tikladi. MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston turizm sohasida yetakchi hisoblanadi. Jumladan, Rossiyada 2022-yilda 25 milliondan ortiq sayyoh qayd etilgan, Qozog‘istonda esa bu ko‘rsatkich 8,5 millionni tashkil etdi. O‘zbekistonda 2022-yilda 5,2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. Surxondaryo viloyatida turizm salohiyati yuqori bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda viloyatda turizm xizmatlari hajmi 310 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu viloyat YAIMining qariyb 3,2 foizini tashkil qiladi. Turizm infratuzilmasida 120 dan ortiq mehmonxona va turar joy maskanlari, 45 ta turizm agentligi faoliyat yuritmoqda.

Termiz shahri, Fayoztepa, Kampirtepa, Dalvarzin tepaligi kabi tarixiy obidalar, Boysun va Sherobod tumanlaridagi etnografik maskanlar, Surxon davlat qo‘riqxonasi ekoturizm imkoniyatlarini kengaytirmoqda. 2023-yilda Termiz xalqaro aeroportidan xizmat ko‘rsatish hajmi 20 foizga oshib, sayyohlar oqimi ko‘paygan.



1-rasm. Surxondaryo viloyati turizmini rivojlantirish bo‘yicha takliflar

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati turizm salohiyatiga ko'ra O'zbekistonning eng muhim hududlaridan biri hisoblanadi. Biroq, mavjud muammolar sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sayyohlar oqimini cheklaydi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sifati xalqaro talablar darajasida emas. Uchinchidan, marketing va reklama faoliyatining sustligi natijasida hududning turistik brendi yetarlicha shakllanmagan.

Investitsiyalar hajmini oshirish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish va mahalliy kadrlarni tayyorlash orqali turizmning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada ko'tarilishi mumkin.

Surxondaryo viloyati, O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, o'zining boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi bilan ajralib turadi. Viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda turizm sohasi muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar orqali turizmni rivojlantirish va iqtisodiyotga integratsiya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar davom etmoqda.

Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jarqo'rg'on, Boysun va Sariosiyo tumanlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari va turizm infratuzilmasi ob'ektlarini tashkil etish bo'yicha master-rejalar tasdiqlandi. Masalan, Jarqo'rg'on tumanidagi "Oqtepa" suv ombori qirg'oqbo'yi hududida "Obi hayot" ekoturizm majmuasini ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan. Boysun tumanidagi "Omonxona" hududida 220 gektar maydonda zamonaviy turizm ob'ektlari barpo etiladi. Sariosiyo tumanidagi "Sangardak" hududi bo'yicha ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, 615 gektar yer maydoni 20 ta lotga ajratiladi. Bu yerda ham zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari, savdo ob'ektlari va turizm infratuzilmasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Surxondaryo viloyati turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikka katta ahamiyat bermoqda. 2022 yilning dekabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan «Ipak yo'lida turizm» xalqaro sayyohlik yarmarkasida viloyat delegatsiyasi bir qator kelishuvlarga erishdi. Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya, Gruziya, Qirg'iziston, Eron Islom Respublikasi, Belorusiya va Armaniston davlatlari bilan turizm oqimlarini oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, mehmonxona, turfirma va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha 200 ga yaqin shartnomalar imzolandi.

Surxondaryo viloyati o'zining boy madaniy merosi bilan ham ajralib turadi. Vohada 600 dan ziyod madaniy meros va turizm obyekti mavjudligi ta'kidlanmoqda. Viloyatda ziyorat, buddizm, agro, sanoat, ekologik va sog'lomlashtirish, gastronomik kabi turizm yo'nalishlarining rivojlanayotgani hududga mahalliy va xorijlik sayyohlar oqimini yil sayin kengaytirmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida vohaga 1 million 120 mingdan ortiq mahalliy va qariyb 600 ming xorijlik sayyoh kelgani ham bunga yaqqol dalildir. Viloyatda turizmni rivojlantirishda xususiy sektor faoliyatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jarqo'rg'on, Boysun va Sariosiyo tumanlaridagi master-rejalar doirasida xususiy sektor ishtirokida turizm ob'ektlari barpo etilishi rejalashtirilgan. Bu orqali mahalliy tadbirkorlar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasi o'zining salmoqli o'rni bilan ajralib turadi. Tarixiy-madaniy meros, tabiiy go'zalliklar, milliy an'analar va zamonaviy infratuzilmaning uyg'unlashuvi viloyat turizmini O'zbekistonning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. To'g'ri tashkil etilgan davlat siyosati, mahalliy tadbirkorlarning faolligi va xalqaro hamkorlikning kengayishi orqali Surxondaryo nafaqat mamlakat ichida, balki butun Markaziy Osiyoda turizm markaziga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Раҳимов Б. Туризмда маркетинг асослари: ўқув қўлланма. - Тошкент: "Иқтисодиёт", 2018. - 220 б.
2. Раҳимова М. Туризмда таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими. - Тошкент: "Иқтисодиёт", 2018. - 210 б.
3. Тўхтаев С. Туризм иқтисодиёти ва менежменти: дарслик. - Тошкент: "Иқтисодиёт", 2017. - 280 б.
4. Холиқов А. Туризмда сервис ва менежмент. - Тошкент: "Turon-Iqbol", 2015. - 240 б.
5. Шарипова Н. Экологик туризм асослари: ўқув қўлланма. - Тошкент: "Universitet", 2020. - 175 б.
6. Эргашев Д. Туризмда инновацион менежмент. - Тошкент: "Иқтисодиёт", 2022. - 260 б.
7. <https://lex.uz/docs/-4832412>.